

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
NUTQINI O'STIRISHDA TURLI TOPSHIRIQ VA MASHQLARNING AHAMIYATI**

O'ljayeva Xurshida Azamat qizi

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) magistranti

Ilmiy rahbar: Suyunov Miltiqbay

pedagogika fanlari nomzodi dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirishda turli topshiriq va mashqlarning ahamati, ulardan foydalanish orqali og'zaki va yozma nutqni takomillashtirish haqida bilim beradi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, boshlang'ich sinf, mashq, topshiriq, nutq, partadosh, kreativ fikrlash, nutq.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q¹⁴,"-deganlaridek, ta'lim va tarbiya bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanib ulgurdi. Necha asrlardan beri ular chambarchas tarzda olib borilayapti. Sababi ular bir-birdan ayro bo'lmaydi, ya'ni ta'lim bor joyda tarbiya bo'lmasa 1000 soni 0 ga teng bo'ladi. Chunki tarbiya 1 ga teng, ta'lim esa 0 ga tengdir. Lekin ta'lim qancha ko'paygani sari tarbiyaning qiymati ham oshib boraveradi.

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, bolalarga chuqur bilim berish ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga olib kirildi.

Ta'lim uzluksiz ta'limning bosh qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi.

Ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktab tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizni olib borayotgan mazkur siyosati ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan ustozlardan g'oyat katta ma'suliyat hamda o'qitishning yangi texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shularni hisobga olib, maktablarda bola har tomonlama tayyorlash, ular orasida bola nutqini rivojlantirish masalasi eng

¹⁴ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi. 2022-yil 28-yanvar.

asosiylaridan hisoblanadi. Ularning soʻz boyligi oshishi ravon gapirishi va oʻz fikrini toʻliq ifoda etib, aytib bera olishga oʻrgatish masalaning dolzarbligini koʻrsatib beradi.

Nutq–kishi faoliyatining turi, nutq vositalari (soʻz, soʻz birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq oʻzaro aloqa va xabar funksiyasini, oʻzaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga taʼsir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Oʻquvchi uchun esa nutq maktabda muvafaqqiyatli taʼlim olish qurolidir.

Nutq oʻstirish bu–agar oʻquvchi va uning tildan bajargan ishlari koʻzda tutilsa, nutq oʻstirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lugʻati, sintaktik qurilishi, bogʻlanishli nutqni) aktiv amaliy oʻzlashtirish tushuniladi.¹⁵ Agar oʻqituvchi koʻzda tutilsa, nutq oʻstirish deganda, oʻquvchilar tilning talaffuzi, lugʻati, sintaktik qurilishi va bogʻlanishli nutqni aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qoʻllash tushuniladi.

“Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsliklarining tashkil etilishi oʻquvchilarning nutqini oʻstirishda juda ahamiyatlidir. Chunki ushbu darsliklardagi mashqlar ularning ham ogʻzaki, ham yozma nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Masalan, quyida bir mashqni koʻrib chiqsak:



“Rasmlarga qarab kichik hikoya yozing” deya berilgan ushbu mashqda bolajonlarni chuqur oʻylanishga undaydigan, tabiat, jamiyat, iqtisod va vatanparvarlik ruhiga yoʻgʻrilgan rasmlar keltirilgan. Har bir oʻquvchi ushbu topshiriqqa oʻz dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yondashish barobarida fikr bildiradi. Fikr bildirish esa oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini shakllantiradi.

¹⁵ M.Mirqosimova. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari.- Toshkent, Fan, 2006.

¹⁶ Ona tili va oʻqish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshqalar] – Toshkent. Respublika taʼlim markazi, 2021. 78-b.


1-topshiriq uchun ham og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifa berilgan: "Partadoshingiz bilan suratlarda aks etgan voqea haqida fikr almashing." Bunda sinfdagi barcha o'quvchilarning o'zaro fikr almashish jarayoni tashkil etilishi mumkin. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan bilimli va faol o'quvchilarni partadosh qilib qo'yiladi. Shu usulda ularning og'zaki nutqlari shakllanadi.

2-topshiriq uchun esa kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriq keltirilgan: "Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping."

3-topshiriq uchun ham yana og'zaki nutqni rivojlantirish uchun qaratilgan vazifa berilgan: "Hikoyada Oy, Yer, Quyosh, osmon, fazo, koinot kabi so'zlardan foydalanishga harakat qiling." Lug'atlardan unumli foydalanish so'z boyligini oshiradi. Shuning barobarida nutqni kompetensiyaga ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

4-topshiriq 1-topshiriqqa o'xshab ketadi. Ya'ni: "Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni ayting."

Yoki yana bir mashqqa to'xtaladigan bo'lsak:




KO'ZOYNAKKA QADAR

Tarixda dumaloq shisha idishlar ko'zoynak vazifasini o'tagan. Idishning ichi suv bilan to'ldirilgan. Uni ko'zga yaqin tutib kitoblarni o'qish mumkin edi. Keyinroq shishadan linzalar yasalgan. Ularni qo'l bilan tutib turish uchun dastagi ham bo'lgan. Yana burunga yoki ko'z soqqasiga qotiriladigan g'aroyib ko'zoynaklar ham bo'lgan. Lekin eng qulay ko'zoynak – dastasi (bandi) quloqqa taqiladigani bo'lib chiqqan.

"Ixtirolar sarguzashti" kitobidan

17

Ushbu darslikda bu kabi qiziqarli va yangidan yangi ma'lumotlar bisyorgina. Shuningdek, ular bekorga keltirilmagan. Har bir noyob ma'lumotlardan iborat matndan so'ng o'quvchilarni har tomonlama takomillashtirish uchun qaratilgan quyidagicha topshiriqlar berilgan:



1. Tarixda ko'zoynakning qanday ko'rinishlari bo'lgan?
2. Ko'zoynak nimalardan yasalgan?
3. Nima deb o'ylaysiz, nega ixtirochilar birinchi urinishdayoq hozirgidek qulay ko'zoynakni yasay olishmagan?

3. Matn asosida bo'sh o'rinlarni to'ldiring.
4. Berilgan so'zlarni mos ustunga yozing.

tarix ————— bugun ————— kelajak

18

¹⁷ O'sha manba. 81–bet.

¹⁸ O'sha manba. 82–bet.

4-topshiriq sifatida keltirilgan: “Berilgan soʻzlarni mos ustunga yozing” mashqi orqali oʻquvchilarni ham nutqiy, ham tanqidiy va mantiqiy fikrlashiga eʼtibor qaratish mumkin. Chunki oʻquvchilarni tarix, bugun hamda kelajak haqida mantiqiy izchillikka yondashgan holda fikr yuritish daftarlariga koʻzoynakning kechagi kuni, buguni va ertasi haqida yozishadi. Bunda oʻquvchilarda yozma nutqni ham shakllantiriladi. Oʻquvchilar ustun shakliga solib yozgan topshirigʻini izohlab, ogʻzaki tushuntirib berishi orqali esa ularning ogʻzaki nutqi ham rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab taʼlimini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yigʻilishi. 2022-yil 28-yanvar.
2. Abdullayeva Q. Nutq oʻstirish. - T.:Oʻqituvchi, 1980.66-bet.
3. Muhiddinov A.G'. Oʻquv jarayonida nutq faoliyati. – T.: Oʻqituvchi, 1995. 78-bet.
4. Ona tili va oʻqish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshqalar] – Toshkent. Respublika taʼlim markazi, 2021. 78, 82-b.
5. M.Mirqosimova. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari.- Toshkent, Fan, 2006.